
RISHTON TUMANIGA TASHRIF

Farg'ona viloyatida bo'lib turgan Hindistonning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Smita Pant bugun Rishton tumaniga keldi.

"Mingboshi keramik" kulolchilik muzeyida bo'lgan rasmiy mehmon kulolchilik mahsulotlari bilan tanishishdan tashqari, ularning tayyorlash jarayonlarini ham maroq bilan tomosha qildi.

Muzeyda murakkab hamda nafis naqshlar, o'ziga xos uslubda yaratilgan, tabiat manzaralari tushirilgan turli ko'rinishdagi serjilo idishlar va kulolchilik buyumlari joylashgan.

Ushbu tashrif elchida katta taassurot qoldirdi. Smita Pant rishtonlik usta kulollar tomonidan yaratilgan bir-biridan go'zal san'at asarlarini katta qiziqish bilan tomosha qilishar ekan o'zlarining hayratlarni yashira olmadi.

2024-11-05 18:42:48